

**FE`LNING VAZIFA SHAKLLARIGA KIRUVCHI RAVISHDOSH
SHAKLINING QO`LLANISH XUSUSIYATLARI
SO`ZNING BADIY VA LISONIY TAHLILI
(ABDULLA QAHHORNING “ANOR” HIKOYASI MISOLIDA)**

**f.f.f.d. Feruza Jumayeva (ilmiy rahbar)- jspi.uz
JDPI talabasi Dilshoda Qo‘chqorova**

Adabiyotimizning yetuk va zabardast yozuvchisi Abdulla Qahhor barcha kitobxonlarga manzur bo‘luvchi, ma’naviy ozuqaga boy asarlar yozdi. Yozuvchi barchaga tushunarli bo‘lgan sodda tilda oddiy xalq hayotini qalamga oladi. Shu bois o‘quvchi asarni o‘qir ekan voqea-hodisalar uning ko‘z o‘ngida yorqin gavdalana boshlaydi. Asarda turmushda qo‘llaniladigan oddiy narsalardan keng foydalanilgan. Ularni ifodalovchi so‘zlar ham katta ma’no-mazmunga ega bo‘lib, kitobxonni o‘ziga jalb etadi. Jumladan, "Anor" hikoyasidagi har bir detall mahorat bilan tanlangan. Hikoyada yirtilgan yaktak, oqsoq mushuk, zangi chiqqan qozon, obrez, anor kabi talaygina detallar keltirilgan. Bu detallarning har biri o‘ziga xos ma’noga ega bo‘lib, tasvirni boyitadi, fikr-mulohazalarni kengaytiradi. Masalan: zangi chiqqan qozon detali Turobjonning oilasi nochorligining belgilaridan biridir. Bu qozonda ancha paytdan beri ovqat qilinmaganligini anglash bilan oilaning sharoiti haqida xulosa paydo bo‘ladi. Obrez detali ham yuqoridagi ma’noga hamohang holda qo‘llanilgan bo‘lib asar qahramonining hovlisi juda ham tor ekanligini va boshqa buyumlarning ham yo‘qligini ko‘rsatib bergan. Anor detali esa hikoya nomini yana ham oydinlashtirgani holda ayolning shunga boshqorong‘i bo‘lganini va Turobjonning qo‘li kaltalik qilayotganini namoyon etgan. Bir so‘z bilan aytganda yuqorida keltirilgan detallar asar qahramonlarining ijtimoiy holatini yoritishda asosiy vazifa bajargan.

Hikoyada aksini topgan voqealar hayotiyliigi bilan ham ta’sir kuchiga ega. Abdulla Qahhor "Hayot hodisasidan badiiy to‘qimaga" kitobida shunday yozadi: "Hikoyadagi voqealar Buvaydada ko‘rgan-kechirgan voqea hodisalar asosida vujudga kelgan. Hikoyada tasvir etilgan Turobjon bizga qo‘shni bo‘lib asli ismi Babar...". Bu hayotiy voqeani yozuvchi qanday ko‘rgan bo‘lsa, shunday tasvir etadi. Tasvir mahorati esa so‘zning ma’no qirralaridan unumli foydalana olishidadir. Asarda *Keli lapanglab ag‘anadi, chala tuyilgan jo‘xori yerga to‘kildi* jumlasini keltirilgan, yozuvchi kelining ag‘anash holatini tasvirlashda *lapanglab* so‘zini ishlatadi. *Lapanglamoq* so‘zi “u yoq bu yoqqa chayqalmoq” ma’nosini bildiradi. Asosan, jussasi katta insonlarga nisbatan qo‘llaniladi. Asarda yozuvchi kelining ag‘anash holatini *lapanglamoq* so‘zi orqali ifodalab, jumlaning ta’sirchanligini, tasvirning boyoqdorligini oshirgan. Asardagi *Xotini turayotib baralla yig‘lab yubordi* jumlasini ham e’tiborni tortadi. Ma’lumki, kishi baqirib, o‘kirib yig‘lashi mumkin lekin baralla yig‘lash holati boshqacha tusga ega. Yozuvchi so‘z semantikasi imkoniyatlaridan mahorat bilan foydalangan. *Baralla* so‘zi semantikasida “ko‘plik”, “balandlik” kabi semalar mavjud bo‘lib, qahramonning yig‘i holatini aniq ifodalashga xizmat qiladi.

"Anor" hikoyasida ko'plab detallar vositasida asar qahramonlarining turmush tarzi, ijtimoiy holati yoritilgan va buni ifodalashda so'zning semantik, pragmatik imkoniyatlaridan keng foydalanilgan. Shu bois adabiyot va til bir-biri bilan chambarchas bog'liqdir. Adabiyot tilning, til esa adabiyotning imkoniyatlarini kengaytirib, boyitib boradi. Lisoniy tahlillar asosida badiiy asarning mazmun-mohiyati ochib beriladi, badiiy matnni tahlil qilish asosida esa so'zning semantik-pragmatik xususiyatlari namoyon bo'ladi.